

## TASHQI SAVDODA NAZARIYALARNING AMALIY AHAMIYATI

Sodikov Zokir Rustamovich, O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi  
Islom iqtisodiyoti va moliyasi, ziyorat turizmi kafedrasida dotsenti, i.f.n.

**Annotatsiya:** Maqolada jahohdagi tashqi savdo jarayonlarining nazariy talqinlari va ularning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. Omillar nisbati nisbati va yangi tashqi savdo nazariyalarining mohiyati tahlil qilingan. Bu nazariyalarning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar vaziyatiga muvofiq amaliy xarakteri va xususiyatlari ochib berilgan. Tashqi savdo obyektini bo‘lgan tovarlarning nazariy jihatdan talqini keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** tashqi savdo nazariyasi, yangi tashqi savdo nazariyasi, miqyos samarasi, tovarlarni tabaqalashtirish, eksport, import, tashqi savdo, jahon savdosi, xalqaro savdo, jahon bozori, savdo.

## ПРАКТИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТЕОРИЙ ВО ВНЕШНЕЙ ТОРГОВЛЕ

Содиков Зокир Рустамович,  
доцент кафедрой “Исламская экономика и финансы, зиярах туризм”  
Международной исламской академии Узбекистана, к. э. н.

**Аннотация:** В статье рассмотрены теоретические интерпретации внешнеторговых процессов в мире и их специфические аспекты. Анализируются соотношения факторов и сущность новых теорий внешней торговли. Практическая природа и характеристики этих теорий раскрываются в соответствии с положением развитых и развивающихся стран. Дается теоретическая интерпретация внешнеторговых товаров.

**Ключевые слова:** теория внешней торговли, новая теория внешней торговли, эффект масштаба, дифференциация продукции, экспорт, импорт, внешняя торговля, мировая торговля, международная торговля, мировой рынок, торговля.

## The practical importance of theories in foreign trade

SODIKOV Zokir Rustamovich,  
International Islamic Academy Of Uzbekistan, PhD, docent of the  
Department of “The Islamic economy and finance, ziyarah tourism”.

**Abstract:** The article covers theoretical interpretations of world foreign trade processes and their specific aspects. The ratio of factors and the essence of new foreign trade theories are analyzed. The practical nature and features of these

theories are revealed in accordance with the situation of developed and developing countries. A theoretical interpretation of goods that are the object of foreign trade is presented.

**Keywords:** foreign trade theory, new foreign trade theory, scale economies, product differentiation, export, import, foreign trade, world trade, international trade, world market, trade.

Milliy iqtisodiyotning takror ishlab chiqarish jarayoni makrodarajada yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarish shaklida sodir bo‘ladi va uning tarkibiy qismlaridagi o‘zgarishlarning yo‘nalishlarini namoyon qiladi. Bu o‘zgarishlar asosida ahohlining iste‘mol va jamg‘arish moyilligi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning investitsion imkoniyatlari va eksportga yo‘nalganligi borasida tasavvur hosil qilish mumkin bo‘ladi. Milliy iqtisodiyot tarmoqlarining tarkibiy tuzilish va ishlab chiqarishda ularning nisbati hamda dinamikasi, yetakchi tarmoqlarda samaradorlikning o‘sishi, resurslar tejamkorligi va boshqalarni aniqlash uchun imkoniyat tug‘uladi. Shuning uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi farmonining “Barqaror iqtisodiy o‘shish orqali aholi farovonligini ta‘minlash” yo‘nalishi 55-maqсадida “Milliy iqtisodiyotning eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo‘shilgan qiymati yuqori bo‘lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish” borasida vazifa<sup>1</sup> belgilangan.

Milliy iqtisodiyotning texnologik tuzilishi esa an‘anaviy va zamonaviy texnologiyalar nisbati dinamikasi, ilg‘or texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayoniga joriy etish tendensiyasi borasida vaziyatni namoyon qilsa, uning mintaqaviy tuzilishi esa ishlab chiqarish tizimida mamlakat hududlarining o‘rni va rolini, ularning o‘zaro mutanosibligi va rivojlanish xususiyatlarini aks ettiradi. Shu bois, M.Porter "Xalqaro savdoni mamlakatlarning nisbiy afzallikka erishish garovi" sifatida talqin qilgan. Globallashuv avj olib borayotgan davrda xalqaro savdo – bu mamlakatlar iqtisodiyotlarining internatsionallashuvi, xalqaro mehnat taqsimoti jarayonining chuqurlashuvi, fan-texnika taraqqiyoti va

---

<sup>1</sup>O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi (2023-yil 11-sentabr, PF-158-son) farmoni

innovatsiyalarning jadal avj olib borishi sharoitida ko'plab milliy xo'jaliklar o'rtasida tovar va xizmatlarni ayirbosh qilish mexanizmining namoyoni bo'lib, u mamlakatlar va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishi uchun ustuvor ahamiyat kasb etadigan aspekt hisoblanadi.

Jahon hamjamiyatida xalqaro savdo natijasida har bir mamlakat muayyan turdagi tovarlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashish va cheklangan resurslardan samarali foydalanish orqali xususan mamlakat miqyosida, umuman dunyo miqyosida aholining moddiy va ma'naviy farovonlik darajasi yuksaladi. Shu bois ayrim tadqiqotchilar xalqaro savdoning klassik va keynsyan iqtisodiy ta'limotlarga muqobil sifatida miqyos samarasiga asoslangan xalqaro savdo nazariyasini o'rta tashlagan. Zero, miqyos samarasi tushunchasining mohiyati bu aniq mavjud bo'lgan texnologiya asosida ishlab chiqarishni tashkil etib, mahsulot chiqarish hajmi ortgan sari uzoq muddat mobaynida bir birlik tovarga to'g'ri keladigan o'rtacha xarajatlar miqdori qisqarishini bildiradi. Chunki ommaviy ishlab chiqarish jarayonida tejash imkoniyati vujudga keladi va bu yetarli darajada yirik bozor bo'lishini talab etadi.

Mazkur vaziyatda xalqaro savdo hal qiluvchi rolni bajaradi va mahsulot sotiladigan bozorlarni kengayishiga imkoniyat ta'minlab beradi. Shu bois, texnologik uzilish yoki ochiqlik nazariyasiga binoan mamlakatlardagi fan-texnik yutuqlari barqaror ko'paymaganligi uchun muayyan mamlakat ishlab chiqarishida birinchi bo'lib yangilik yaratilishi mumkin bo'ladi. Natijada bu mamlakatlar mazkur yangi tovar hisobiga xalqaro bozorda monopollashadi va o'zi shu mahsulotni ishlab chiqarib, sotish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Lekin mamlakat tashqi savdosida eksportning yangi texnologiya asosida yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi o'zining an'anaviy mahsulotga ixtisoslashuviga nisbatan muvaqqat xarakterga ega bo'ladi. Chunki bu texnologiyani boshqa mamlakatlar o'zlashtirib olishi bilan uni nisbiy afzallikka ega bo'lgan mamlakatlar ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshira boshlaydi.

Iqtisodiy ta'limot sifatida tashqi savdo borasidagi afzal ko'rish yoki tanlovlardagi o'xshashlik nazariyasiga binoan B.S.Linderning fikriga ko'ra,

jahondagi savdoda sanoat mahsulotlari oqimi taklif vaziyatiga qaraganda talab shart-sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Unga ko'ra, bir mamlakatda ishlab chiqarilayotgan mahsulot turi shu mamlakat iste'molchilarining xilma-xil ehtiyojlariga to'liq mos kelmaydi. Aynan, xalqaro savdo jarayoni ana shu yetishmayotgan tovar turini ta'minlashga zamin hozirlaydi. Shu nuqtayi-nazardan kelib chiqqan holda qaysi davlatlar o'zaro savdo aloqalarini o'rnatishi mumkinligi haqida taxminiy xulosaga, borsaga bo'ladi. Bunda asosan mamlatlarda turmush farovonligi darajasining yaqinligi va o'xshashligi ahamiyat kasb etadi. Chunki, davlatlardagi iste'molchilar o'zlari iste'mol qilayotgan tovar turiga va sifatiga to'g'ri keladigan tovarlarni xorijiy mamlakatlardan import qilib, xarid qilishga moyil bo'ladilar. Mazkur vaziyat bugungi kunda postindustrial mamlakatlarning tashqi savdo sheriklari nima uchun bu darajada rivojlangan boshqa mamlakatlardan iborat ekanligini isbotlashga asos bo'ladi. Umumiy tahlil va tadqiqotlardan kelib chiqmoqdaki, xalqaro savdo borasida ta'limotlarni ishlab chiqishda namoyondalar tovarlar va ishlab chiqarish omillari taklifini o'rganishga ustuvor darajada e'tibor qaratgan bo'lsada, talab shartlariga va vaziyatlariga yetarli darajada diqqat qilmagan. Bu yondashuv tarzi klassik iqtisodiy ta'limotlar maktabi namoyondalari usuli sifatida sohadagi ilmiy izlanish amaliyotiga kirib kelgan va bugungi kunda ham bu usul to'liq amaliy xarakterga ega hisoblanadi.

Ma'lumki, har qanday bozor singari, xalqaro bozorda ham tovarlar taklifi uning talabiga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu bois zamonaviy shart-sharoitlardan va imkoniyatlardan kelib chiqib, xalqaro savdo borasida o'rtaga tashlanayotgan nazariya va gipotezalarda tovarlarning talab bilan taklifiga jiddiy e'tibor qaratilishi tabiiy hisoblanadi. Iqtisodiy ta'limot sifatida katta ahamiyatga ega bo'lgan, talab bilan taklif muvozanati neoklassik farazlarga asoslangan va tashqi savdoning standart modeli ko'plab tadqiqotlarning samarasi o'laroq paydo bo'lgan. Shu bois tashqi savdoning iqtisodiy o'sishga ta'siri tadqiqot olib borish uchun jiddiy ahamiyat kasb etgan. Chunki bir tomondan ishlab chiqarishni kuchaytirish eksport taklifini kengaytirishga va yangi bozorlarni o'zlashtirishga olib kelsa, ikkinchi tomondan iqtisodiy o'sishning jadallashuvi hisobiga erishilgan yutuqlar eksport

narxlar orqali xorijiy mamlakatlarga transfert bo'lib ketishi mumkin. Milliy iqtisodiyotlarda o'sishning tashqi savdo jarayoniga ta'siri uch xil ko'rinishda bo'lishi mumkinligi xulosa qilingan. Jumladan, ular, neytral, eksportni kengaytiruvchi va import o'rnini bosuvchi ko'rinishlarda yuzaga chiqishi mumkin.

Jahonda tashqi savdo jarayonini tahlil qilish natijasida kelib chiqqan V.Leontev paradoksi va uning Xeksher-Ohlin yoki omillar nisbati nazariyasi borasida yuzaga keltirgan munozaralari tufayli 20-asrning 60-yillaridan keyin mamlakatlararo savdo aloqalarini bayon qilish uchun ko'plab yangicha yondashuvlar va gipotezalar o'rtaga tashlangan. Bu yangicha yondashuvlarning ishlab chiqilishi va talqini tashqi savdo nazariyasi sohasida muhim ilmiy yutuqlarning namoyoni sifatida talqin qilinadi. Chunki, ikkiyuzga yaqin mamlakatlar milliy iqtisodiyotlari o'rtasida amalga oshiriladigan turli-tuman milliondan ortiq bo'lgan va doimiy ravishda o'zgarib turadigan tovarlar va xizmatlar savdosini talqin qiluvchi tashqi savdo masalasini oddiy-sodda va sanoqli nazariyalar bilan yoritib berish imkoniyati chaklangan. Faqat har qanday nazariyadan biron bir turdagi yoki guruhdagi tovarlarning tashqi savdo jarayonidagi talqinini izohlash maqsadida foydalanish mumkin. Shu bois, turli xususiyatlardagi tovarlar hamda mamlakatlar o'rtasidagi tashqi savdo jarayonini asoslash va izohlash uchun ko'plab yondashuvlar hamda nazariyalarning tabiiy voqelik hisoblanadi.

Tashqi savdo borasida o'rtaga tashlangan zamonaviy yondashuvlardan biri bu malakali ishchi kuchi gipotezasidir. Xususan, ayrim tadqiqotchi olimlar xulosasiga ko'ra, taraqqiy etgan mamlakatlarda tashqi savdo hajmining aksariyat qismini malakali ishchi kuchiga asoslangan tovar va xizmatlar tashkil qilishi qayd qilinadi. Mazkur talqinga binoan muayyan turdagi kasbiy mahoratga ega va malakali ishchiga boy mamlakatlarda ishlab chiqarish faoliyati asosan kasbiy mahoratga ega va malakali ishchilar ishtirokida ishlab chiqariladigan tovarlarni tayyorlashga ixtisoslashadi hamda ularni eksport qiladilar. Ayni paytda, malakasiz ishchi kuchi ko'p bo'lgan mamlakatlar esa, malakasiz ishchi kuchi ishlab chiqaradigan tovarlarni ishlab chiqarishda ustunlikka ega bo'ladi va ularni eksport

qiladi. Ushbu izohlarga ko‘ra, omillar nisbati nazariyasi bilan malakali ishchi kuchi gipotezasi o‘rtasida muhim darajada umumiylik yoki o‘xshashlik mavjud. Ya‘ni, malakali ishchi kuchini tayyorlash ham, moddiy sarmoyani shakllantirish ham jamg‘armalar hosil qilish orqali ularni investitsiya sifatida yo‘naltirishni talab etadi. Amaliyotda malakali mehnat talab qiladigan tovarlar bilan sarmoya talab qiladigan tovarlar ko‘p jihatdan bir-biriga o‘xshash bo‘ladi. Shuning uchun ayrim mutaxassislar ularni “neo-omil joylashtirish” nazariyasi sifatida talqin qiladilar. Xususan, amaliy tadqiqotlarda malakali ishchi kuchi taqchil, tabiiy resurslarga boy rivojlanayotgan mamlakatlarda ko‘proq an‘anaviy agrar mahsulotlar, kasbiy jihatdan malakali ishchi kuchiga boy rivojlangan mamlakatlarda esa intensiv tarzda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilayotganligi va eksport qilinayotganligi isbotlangan.

Globalashuv avj olib borayotgan sharoitda tashqi savdo bo‘yicha o‘rtaga tashlangan gipotezalar qatorida texnologik uzilish yoki bo‘shliq nazariyasi ham mavjuddir. U gipotezaga binoan industrial mamlakatlar o‘rtasidagi tashqi savdoning katta qismi yangi innovatsion tovarlarga va ishlab chiqarish jarayonlariga asoslangan bo‘ladi. Bu tovar va xizmatlar innovatsiya faoliyatini muntazam amalga oshiruvchi kompaniyalar tomonidan ishlab chiqarilgan bo‘lib, u kompaniyalarning aksariyati rivojlangan mamlakatlar rezidenti hisoblanadi. Shuningdek, innovatsion faoliyat natijalari patent va intellektual mulk huquqiga oid qonunlari bilan himoyalangan bo‘ladi. Ya‘ni, innovatsion yangilikni birinchi bo‘lib yaratgan firma u yangilik asosida ishlab chiqariladigan tovarning monopol egasiga aylanadi va undan keladigan yuqori daromadni qo‘lga kiritadi. Ushbu ixtironing boshqalar tomonidan litsenziyasiz ishlatilishiga esa tegishli qonunlar yo‘l qo‘ymaydi.

Shu bois, texnologik uzilish gipotezasiga ko‘ra, yangi mahsulot yoki ishlab chiqarish jarayonini yaratgan sanoati taraqqiy etgan mamlakatlar bu tovarlarning birinchi ishlab chiqaruvchisi va eksportchisi bo‘ladi. Biroq, vaqt o‘tishi bilan, bu ishlab chiqarish texnologiyasiga taqlid qilinganidan yoki u texnologiya tashqi savdoda erkin tovarga aylanganidan keyin, boshqa davlatlar ishchi kuchi arzonligi

yoki tabiiy resurslar borasidagi ustunligi tufayli yangi tovarni birinchi bo‘lib ixtiro qilgan mamlakatga nisbatan kamroq xarajatlar bilan ishlab chiqarish salohiyatiga ega bo‘ladi. Natijada ushbu tovarlarni rivojlanayotgan mamlakatlar ishlab chiqarish va eksport qilish imkoniyatini qo‘lga kiritadi.

Ayni paytda, mazkur tovarning birinchi novatorlari esa bu mamlakatlar bilan raqobatlasha olmaganligi uchun u tovarlarni xorijiy mamlakatlardan import qilishga ehtiyoj sezadi. Xususan, jahon amaliyotida Buyuk Britaniya bir vaqtlar dunyodagi eng yirik to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqaruvchisi va eksportchisi bo‘lgan. Ammo, qachonki, rivojlanayotgan mamlakatlar to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni boshlagach, Buyuk Britaniyada bu mahsulotni ishlab chiqarish kamayib, uni hatto chet eldan import qilishga to‘g‘ri kelgan bo‘lib, bu jarayon bugungi kunda ham faol davom etmoqda. Omillar nisbati nazariyasiga binoan barcha mamlakatlar bir xil darajadagi ishlab chiqarish texnologiyasini erkin qo‘lga kiritishi va ulardan foydalanishda hech qanday to‘siq bo‘lmaydi, degan, tushunchaga asoslanadi.

Haqiqatda ba‘zi sanoat tarmoqlarida barcha mamlakatlarda bir xil ishlab chiqarish texnologiyasi mavjud bo‘lishi yoki mos tushishi mumkin. Ammo, bu talqin ko‘pgina sanoat tarmoqlari uchun to‘g‘ri kelmaydi va ommaviy xarakterga ega emas. Chunki, aksariyat kompaniyalar ko‘pincha texnologiyalarni “tijorat siri” sifatida atrofdagilardan va raqobatchilardan maxfiy holda saqlaydilar. Shuningdek, bunga patent, sanoat namunalari va intellektual mulk huquqlari to‘g‘risidagi qonunlar ham asqotadi va imkoniyat yaratib beradi.

Jahon amaliyotida ishlab chiqarish texnologiyalarining asosiy qismi rivojlangan mamlakatlarda yaratilayotgan bo‘lib, ular muayyan muddatdan keyin rivojlanayotgan mamlakatlarga transfert qilinadi va ommaviy ishlab chiqarish jarayoniga joriy etiladi. Xususan, to‘qimachilik sanoatida, elektron mahsulotlarida, kimyo sanoatida, temir-po‘lat sanoatida va boshqa shu kabi texnologiyalarini transfert qilish imkoniyati bo‘lgan ko‘plab sohalarda bu amaliyot kuzatilgan. Jumladan, hozirgi kunda ham AQSh texnologiya jihatidan dunyodagi eng ilg‘or mamlakat bo‘lib, juda ko‘plab ilg‘or texnologiya (Hi-Tech) asosida ishlab

chiqarilgan mahsulotlarni eksport qiladi. Ammo, boshqa mamlakatlar bu yangi texnologiyalarni xarid qilib, o'zlarida mavjud bo'lgan arzon ishchi kuchi imkoniyatiga tayangan holda vaqt o'tishi bilan mazkur mahsulot bo'yicha jahon bozorini va hatto Amerika bozorini ham egallab olishga erishmoqda.

Ayni paytda rivojlangan mamlakatlarning innovatorlari yangi turdagi tovarlarni va ishlab chiqarish jarayonlarini kashf etishni davom etadilar. Natijada ushbu mamlakatlarning eksportidagi tovar va xizmatlarda texnologik ustunlikka asoslangan xususiyatlar ahamiyatini saqlab qolmoqda. Shu bois, bu gipotezani testdan o'tkazish uchun xususan rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyoti bo'yicha ko'plab ilmiy-tadqiqotlar o'tkazilgan. Bu tadqiqotlar natijasida muayyan sanoat tarmog'ining sof eksport miqdori bilan u tarmoqdagi tadqiqot va taraqqiyot (R&D) masalasida qilinadigan investitsiyalar, ya'ni, ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga kiritiladigan sarmoyalar o'rtasida yuqori darajadagi korrelyatsion bog'liqlik mavjudligini ko'rsatgan. Mazkur vaziyat innovatsiyaga asoslanan va ilg'or texnologiya taraqqiyotiga tayangan rivojlanish nazariyalarini rag'batlantiruvchi ahamiyatga ega bo'lgan.

Bugungi kunda xalqaro hamjamiyatda globallashuv va integratsiyalashuv jarayoni chuqurlashib borayotgan sharoitda tashqi savdo aloqalari qariyb ikki yuzga yaqin mamlakatlar o'rtasida millionlab turdagi tovarlar va xizmatlar bo'yicha amalga oshirilmoqda. Ayni paytda ushbu tovar va xizmatlarning turi, shakli, sifati va boshqa xususiyatlari muntazam ravishda va uzluksiz tarzda o'zgarib turadi. Shu bois, masalaga real vaziyatdan kelib chiqib baho beriladigan bo'lsa, o'ta darajada xilma-xil va rang-barang xarakterga ega bo'lgan jahon savdosi hamda uning rivojlanish tendensiyasini sanoqli nazariya va gipotezalar bilan muvaffaqiyatli va to'liq yoritib berish qanchalik murakkabligini tasavvur qilish mumkin.

Shunday bo'lsada, tahliliy asosda ko'rib chiqilgan nazariya va gipotezalarning amaliy ahamiyatga egaligi borasida olib borilgan tadqiqotlardan o'ziga xos xulosalar kelib chiqmoqda. Xususan, hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot davrida rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi tovarlar

savdosining aksariyat qismi “Omillar nisbati nazariyasi”da olg’a surulganidek, mamlakatlardagi ishlab chiqarish omillari zichligiga va texnologiyaga asoslangan tarmoqlararo savdo tashkil etadi. Shuningdek, taraqqiy etgan milliy iqtisodiyotlar o’rtasidagi tovar aylanmasining muntazam o’sib borayotgan qismi, bu yangi nazariyalarda yoritib berilganidek, tabaqalashtirilgan tovarlardan iborat ekanligi ma’lum bo’lmoqda.

Muxtasar xulosa sifatida shuni qayd qilish mumkinki, Omillar nisbati nazariyasi va yangi gipotezalarning har biri tashqi savdo jarayonida alohida jihatlarni va boshqalar nazarda tutmagan vaziyatlarni ochib berishga mo’ljallangan bo’lib, shu bois ular o’rtasidagi munosabatlar bir-birini to’ldiruvchi xarakterga ega hisoblanadi. Shuning uchun mamlakatlarda ishlab chiqarish omillari zichligi jihatidan bir-biridan keskin farq qilsa, ular o’rtasida tashqi savdo aylanmasining hajmi tarmoqlararo shunchalik darajada katta bo’ladi. Aksincha, agar mamlakatlarda ishlab chiqarish omillari zichligi borasida mushtarak xususiyatlar mavjud bo’lsa, ular o’rtasidagi savdo aloqalari tarmoqlararo emas, balki, tarmoqichi savdo shaklida rivojlanadi. Demak, masalaga iqtisodiy rivojlanish nuqtayi nazaridan qaraladigan bo’lsa, rivojlanayotgan mamlakatlar bilan taraqqiy etgan davlatlar o’rtasidagi tashqi savdo aloqalari, odatda, tarmoqlararo savdo xarakteriga ega bo’ladi va jarayonning bu turi “Omillar nisbati nazariyasi”ga binoan namoyon bo’ladi. Shuningdek, taraqqiy etgan mamlakatlar o’rtasidagi tashqi savdo aloqalari ko’proq tarmoqichi shaklda amalga oshadi va ularning vaziyati tashqi savdo borasidagi yangi nazariyalar talqiniga binoan yuzaga chiqadi. Ana shu shart-sharoitlardan va o’ziga xos jihatlardan kelib chiqqan holda, qaysi nazariya qanday vaziyatda qo’llanilishini, ya’ni, obyektning mohiyatini yaxshi bilishni talab etadi. Zero, ishlab chiqarish omillari nisbati yoki zichligi nazariyasi xomashyo, qishloq xo’jaligi mahsulotlari va mehnat talab qiladigan tarmoqlarga oid tovarlarning tashqi savdosini talqiniga qaratilgan bo’lsa, miqyos samarasi va tabaqalashtirilgan tovarlar borasidagi yangi nazariyalar esa sarmoya sig’imlilikiga va innovatsion texnologiyaga asoslangan tarmoqlardagi tovarlarning tarmoqichi tashqi savdosini tushuntirish yo’nalgan nazariyalar hisoblanadi.

## **Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi (2023-yil 11-sentabr, PF-158-son) farmoni
- 2.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik –har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. O‘zbekiston, T.: 2017.
- 3.Vaxabov A.V. va boshqalar Jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Darslik. Baktria press, T.: 2015.
- 4.Dominick S., International economics. Printed in the USA /. – 13th ed. 2019. 720 p.
- 5.Krugman P., Obstfeld M., Melitz M. International economics: theory and policy. 12 th edition. Harlow, Essex: Pearson, 2023, 817p.
6. Sirajiddinov N. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar. Birinchi qism. Tashqi savdo nazariyasi va siyosati. O‘quv qo‘llanma. – T.: JIDU, 2017. – B. 182.
7. Seyidoğlu H. Uluslararası İktisat: Teori Politika ve Uygulama. Güzem can yayinlari, Istanbul, 2022. - 22. baski
- 8.Thomas A. Pugel. International Economics. Printed in the USA /. – 18th Edition. 2024.
- 9.Tuxliyev N. Jahon iqtisodiyoti rivojlanishida yangi trendlar. Monografiya.– T.: “Ilm-Ziyo-Zakovat”, 2021. – 72 b.
- 10.<https://www.stat.uz>
- 11.<https://www.cbu.uz>
- 12.<https://wdi.worldbank.org/tables>